



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2026"

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA “SODIQLIK” VA “SOTQINLIK” KONSEPTLARINI IFODALOVCHI FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING LEKSIK- SEMANTIK TAHLILI

To‘xtayev Komil Dilshodovich

Buxoro xalqaro universiteti, lingvistika (ingliz tili) yo‘nalishi 2-kurs magistranti

Annotatsiya: Bu tezisdagi frazeologik birliklarning xususiyatlari izohlangan. Unda rus tilshunos olimi V.V. Vinogradovning frazeologik birliklar tasnifi keltirilgan va tasnifdagi frazeologik birliklar guruhlari tushuntirilgan. Tezisdagi “sodiqlik” va “sotqinlik” konseptlarini ifodalovchi frazeologik birliklar V.V. Vinogradov tasnifidagi guruhlarga ajratilgan. Tanlab olingan frazeologik birliklar leksik-semantik jihatdan tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: frazeologik birlik, frazeologik qo‘shilma, frazeologik butunlik, frazeologik chatishma, ibora, semantik motivatsiyalanganlik, sodiqlik, sotqinlik, leksik-semantik ma‘no.

Аннотация: В данном тезисе раскрываются особенности фразеологических единиц. В нём представлена классификация фразеологических единиц, предложенная русским лингвистом В.В. Виноградовым и объяснены группы фразеологических единиц в классификации. В тезисе фразеологические единицы, выражающие концепты “верность” и “предательство”, были распределены по группам согласно классификации В.В. Виноградова. Отобранные фразеологические единицы проанализированы в лексико-семантическом аспекте.

Ключевые слова: фразеологическая единица, фразеологическое сочетание, фразеологическое единство, фразеологическое сращение, идиома, семантическая мотивированность, верность, предательство, лексико-семантическое значение.

Annotation: This thesis explains the characteristics of phraseological units. It presents the classification of phraseological units created by the Russian linguist V.V. Vinogradov and defines the groups of phraseological units in the classification. The thesis classifies the phraseological units that denote the concepts “loyalty” and “betrayal” according to V.V. Vinogradov’s classification. The selected phraseological units are analysed from the lexical-semantic aspect.

Key words: phraseological unit, phraseological combination, phraseological unity, phraseological fusion, idiom, semantic motivation, loyalty, betrayal, lexical-semantic meaning.

Til tarkibida turg‘un (yoki barqaror) birikmalar deb nomlanuvchi til birliklari qatlami bor. Bu til birliklari tarkibi o‘zgarmaydi va ular til egalari uchun zaxira sifatida mavjud. Turg‘un birikmalarni paremiologiya fani, turg‘un birikmalarning bir turi, frazeologik birliklarni esa frazeologiya fani o‘rganadi. Frazeologik birliklar frazeologizm, frazema, xalq orasida esa, asosan, ibora deb ataladi.



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2026"

Tilshunos olimlar frazeologik birliklarning quyidagi xususiyatlari borligini ta'kidlashgan:

1. Frazeologik birliklar tarkib jihatdan o'zgarmas, ya'ni frazeologik birliklar tarkibidagi so'zlar ko'p hollarda o'zgar olmaydi. Tarkibidagi so'zlaridan biri o'zgaradigan frazeologik birliklar ham bor. Misollar: a'zoyi badanidan ter chiqib ketdi – a'zoyi badanidan sovuq ter chiqib ketdi, almisoqdan beri – almisoqdan buyon;

2. Frazeologik birliklar ishlatilganda ular tarkibidagi so'zlarning alohida semantik ma'nolari emas, shu so'zlarning umumiy frazeologik ma'nosi tushuniladi. Frazeologik birliklar ko'pincha ko'chma ma'noni anglatadi, lekin to'g'ri ma'noda ishlatiluvchi frazeologik birliklar ham mavjud. Frazeologik birliklar ma'no jihatdan so'zga, so'z birikmasiga yoki gapga teng bo'ladi. Ko'chma ma'noli frazeologik birliklarga misollar: sirtiga yuqtirmaslik – aytilgan gaplarni e'tiborga olmaslik; bir dunyo – juda ko'p. To'g'ri ma'noda ishlatiluvchi frazeologik birliklar ingliz tilida ko'proq uchraydi. Misollar: in the morning, at night, over the bridge (bu misollar predlogli kollokatsiyalardir);

3. Frazeologik birliklar sintaktik jihatdan yaxlit, ya'ni gap tarkibida frazeologik birlik to'lig'icha bir gap bo'lagi vazifasini bajaradi;

4. Frazeologik birliklarda ma'no, asosan, o'xshatish asosida ko'chadi. Bu metaforik obrazlilikni keltirib chiqaradi va frazeologik birliklar nutqda va adabiyotda qo'llanganda, ular so'zlovchining nutqini qiziqarliroq va chiroyliroq, hatto, boyroq ham qilib beradi;

5. Har bir til o'ziga xos frazeologik birliklar qatlamiga ega. Alohida tillarda ayrim frazeologik birliklar so'z tarkibi va ma'no jihatdan teng kelishi mumkin, lekin qolgan frazeologik birliklarda yoki bir ma'noda so'z tarkibi jihatdan farq bo'ladi, yoki ikkinchi tilda bu kabi ma'noga ega frazeologik birlik umuman mavjud bo'lmaydi. Bir tildagi frazeologik birlikning ikkinchi tilda mavjud emasligining sababi ikki xalqning madaniyati va hayot tarzi farq qilishidadir.

Rus tilshunos olimi V.V. Vinogradov birinchilardan bo'lib frazeologik birliklarni tasniflagan. V.V. Vinogradovdan keyin boshqa tilshunoslar ham frazeologik birliklarni tasniflashgan bo'lsa-da, V.V. Vinogradovning tasnifi hozirgacha tilshunoslik kitoblarida ishlatilmoqda. V.V. Vinogradov frazeologik birliklarni quyidagi 3 guruhga ajratgan:

1. Frazeologik qo'shilmalar – bu guruhdagi frazeologik birliklarda bir so'z ko'chma ma'noda, ikkinchisi esa to'g'ri ma'noda bo'ladi, frazeologik birlik tarkibidagi so'zlarning semantik motivatsiyasi yaqqol sezilib turadi. Misollar: xabar (to'g'ri ma'noda) topmoq (ko'chma ma'noda), e'tibor (to'g'ri ma'noda) bermoq (ko'chma ma'noda) | have (ko'chma ma'noda) breakfast (to'g'ri ma'noda), pay (ko'chma ma'noda) attention (to'g'ri ma'noda);

2. Frazeologik butunliklar – bu guruhdagi frazeologik birliklar to'liq ko'chma ma'noga ega. Ularda obrazlilik o'xshatish va bo'rttirish asosida hosil bo'ladi. Frazeologik butunliklarning ma'nosini ularda tasvirlangan vaziyatni tasavvur qilish orqali tushunish mumkin. Misollar: sirtiga yuqtirmaslik (odamlarning gaplariga parvo qilmaslik), temirni



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2026"

qizig'ida bosmoq (ishni kechiktirmasdan "issig'ida" bajarmoq) | have a memory like a sieve (xotirasi elakday bo'lmoq, ya'ni olingan ma'lumot chiqib ketaveradi);

3. Frazeologik chatishmalar – bu guruhdagi frazeologik birliklarda semantik motivatsiya o'tmishda mavjud bo'lgan, lekin hozirgi tilda yo'qolgan bo'ladi. Frazeologik chatishmalarining ma'nosini tushunish qiyin bo'lib, buning quyidagi sabablari bor: a) ayrim frazeologik chatishmalar tarkibida eskirgan so'zlar mavjud, masalan, alifni tayoq demoq; b) frazeologik chatishma tarix, mifologiya, fan yoki adabiyotdagi shaxs, narsa, voqea yoki joyga ishora qiladi, masalan, O'lmas Koshshay (frazeologik chatishmaning bu turi, asosan, lingvokulturema va allyuziya deb ataladi); d) frazeologik chatishma xalqning madaniyati va turmush tarzining o'tmishidan qoldiq bo'lib qolgan, masalan, ingliz tilidagi "a baker's dozen" (Angliyada o'n ikkita nonning o'rniga o'n uchta non sotilgan davrdan qolgan).

"Sodiqlik" va "sotqinlik" konseptlari va ularning amalga oshirilishini hayot va adabiyotda ko'p uchramiz. Ingliz va o'zbek tillarida bu konseptlarni ifodalovchi frazeologik birliklar soni kam, ammo ularga yondosh bo'lgan do'stlik, yordam berish, dushmanlik, aldoqchilik va ikkiyuzlamachilik konseptlarini ifodalovchi frazemalar va paremiyalar soni ko'proq. Men "sodiqlik" va "sotqinlik" konseptlarini ifodalovchi quyidagi frazeologik birliklarni topdim va ularni tahlil qildim:

1. O'zbek tilida:

1.1. Frazeologik qo'shilmalar:

a) "Sodiqlik" konsepti:

- sadoqat ko'rsatmoq – xatti-harakatlari orqali sadoqatli ekanligini isbotlamoq
- vafo qilmoq – kishiga sodiq bo'lmoq, sa'y-harakatlari va yaxshiliklariga munosib javob qaytarmoq
- so'zida/vadasida turmoq – bergan va'dasiga sodiq bo'lmoq, va'dasining ustidan chiqmoq
- chin do'st – "do'stingman" deb aldamaydigan, aslida dushman bo'lib, o'zini do'st qilib ko'rsatmaydigan, sirni sotmaydigan, doim yonida turib, yordam beradigan do'st
- aka-uka/opa-singil tutinmoq – bir-biriga aka-uka/opa-singillarday mehribon, sadoqatli bo'lishga va yordam berishga qaror qilmoq
- yordam bermoq – yordam kerak bo'lgan paytda yordam ko'rsatmoq
- suyanchiq bo'lmoq – og'ir vaziyatda, xafa/tushkun bo'lganida suyanadigan, dardiga sherik bo'ladigan, yupatadigan kishi bo'lmoq

b) "Sotqinlik" konsepti:

- xiyonat qilmoq – do'stiga, umr yo'ldoshiga, oilasiga, Vataniga sadoqat ko'rsatmaslik, o'z manfaati yo'lida boshqa kishi yoniga ketmoq, dushman tomonga o'tib ketib, o'sha tomonga xizmat qilmoq
- vafo qilmaslik – berilgan mehr, yordam, shirin so'zlarni unutib, yolg'iz, kimsasiz qoldirib ketmoq



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2026"

- sotib ketmoq – do‘stining/Vatanining sirini o‘zgaga borib aytmoq, ishonchini suiiste’mol qilmoq

- almashtirib ketmoq – turmush o‘rtog‘ini o‘z nafsi yo‘lida tashlab, boshqa bir kishining yoniga ketmoq, u bilan oila qurmoq

- orqasidan gapirmoq – o‘zi boshqa joyda bo‘lgan paytda do‘sti yoki yaqin kishisining kamchiliklarini boshqalar bilan muhokama qilmoq yoki u haqida uydirma gaplarni gapirmoq

- fikridan qaytmoq – “qilaman” deb aytgan ishini qilishni xohlamaslik

- qasamini buzmoq – bergan qasamini unutib, uni bajarishdan bosh tortmoq

- o‘zga tomonga sotilmoq – jang-u jadal, urush kontekstida: o‘z do‘stlarini tashlab, boshqa to‘da tomonga o‘tib ketmoq, o‘z Vatanini, quroldosh do‘stlarini tashlab, dushman tomonga o‘tib ketmoq, o‘sha tomonga xizmat qilmoq

1.2. Frazеologik butunliklar:

a) “Sodiqlik” konsepti:

- yelka tutmoq – og‘ir vaziyatda yonida turib, yordam bermoq

- sodiq itdek ergashmoq – sodiq itdek doim yonida bo‘lib, har qanday vaziyatda yordam bermoq va ko‘nglini olmoq

- jonini fido qilmoq – sodiq bo‘lib, do‘stiga yordam berish uchun har qanday qiyinchiliklarga tayyor turmoq

- jonini jabborga bermoq – sodiq bo‘lib, do‘stiga yordam berish uchun har qanday qiyinchiliklarga tayyor turmoq, do‘stini o‘ylab, o‘z xavfsizligi haqida unutmoq

- borini/jonini nisor aylamoq – do‘stdan hech narsani ayamasklik, hatto, o‘z halovatidan kechmoq, do‘stiga yordam berish uchun har qanday qiyinchiliklarga tayyor turmoq

- ahd-paymoniga sodiq qolmoq – nikoh va oila kontekstida: nikoh o‘qishda bergan va’dasiga muvofiq har qanday vaziyatda umr yo‘ldoshining yonida turmoq, yordam bermoq, himoya qilmoq, ehtiyojlarini qondirmoq

b) “Sotqinlik” konsepti:

- orqasidan pichoq urmoq – do‘stiga xiyonat qilmoq

- boshqa oxurdan yem yemoq – o‘z do‘stlarini tashlab, boshqa odamlar guruhi bilan osh-qatiq bo‘lmoq, ularga sherik bo‘lmoq

- bag‘rini tilib ketmoq – tashlab, xafa qilib, yig‘latib ketmoq

- o‘zgaga ilakishib ketmoq – turmush o‘rtog‘ini o‘z nafsi yo‘lida tashlab, boshqa bir kishining yoniga ketmoq, u bilan oila qurmoq

- qo‘yindagi ilon – o‘zini chin do‘st yoki sadoqatli umr yo‘ldoshi qilib ko‘rsatib, yashirincha boshqa odamlar bilan unga xiyonat qiluvchi kishi

- ikki yuzli bo‘lmoq – bir gapni aytib, uning teskarisini qilmoq, bir narsani o‘ylab, boshqa gapni gapirmoq

- ikki xo‘jali bo‘lmoq – yashirincha ikki kishiga xizmat qilmoq

2. Ingliz tilida:

2.1. Frazеologik qo‘shilmalar:



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2026"

a) "Sodiqlik" konsepti:

- loyal at heart – qalbida sadoqati bor
- loyal to the end – oxirigacha sadoqatli, har qanday vaziyatda oxirigacha yonida bo'ladigan

- loyal through and through – vujudi, qalbining ich-ichigacha sadoqatga ega
- loyal to the flag – Vatanining bayrog'iga sadoqatli, Vataniga xiyonat qilmaydigan
- keep loyalty alive – sodiqlikni tirik saqlab turmoq, sodiqlikni yo'qotmaslik
- in prosperity and adversity – yaxshi-yomon kunda, har qanday vaziyatda (birga bo'lmoq)

- stay true – sodiq qolmoq

- on one's side – yonida bo'lishni ifodalaydi

- stick together – birga bo'lmoq va bir-biriga yordam bermoq

- keep your word – so'zida turmoq

- walk the talk – gaplariga mos ishlar qilmoq

- pledge allegiance – qasamyod qilmoq

b) "Sotqinlik" konsepti:

- a fair-weather friend – vaziyat qiyinlashsa tashlab ketadigan do'st

- commit treason – Vatanga xiyonat qilmoq

- give someone away – sotmoq, oshkor qilmoq

- tell on someone – sotmoq, oshkor qilmoq

- play false – aldamoq

2.2. Frazelogik butunliklar:

a) "Sodiqlik" konsepti:

- stand tall with someone – yonida bo'lmoq va himoya qilmoq

- be someone's right-hand man – o'ng qo'li, eng ishongan kishisi bo'lmoq

- stand the test of time – bu iboraning ma'nolaridan biri "sadoqati vaqt bilan, turli vaziyatlarda sinalgan"

- through thick and thin – har qanday vaziyatda (birga bo'lmoq)

- ride or die – har qanday vaziyatda yonida turmoq, jonini fido qilmoq

- back someone up – qo'llab-quvvatlamok

- a shoulder to cry on – suyanchiq, og'ir paytda yelkasiga boshni qo'yib yig'lash mumkin bo'lgan, dardlarni eshitadigan kishi

- lose-together, win-together friends – yutsa birga yutadigan, yutkazsa birga yutkazadigan do'stlar; har qanday vaziyatda birga bo'ladigan do'stlar

- plight your troth – ahd-paymon qilmoq

b) "Sotqinlik" konsepti:

- bite the hand that feeds you – tuzini yeb, tuzlig'iga tupurmoq

- stab someone in the back – orqasidan pichoq urmoq

- throw someone under the bus – noqulay vaziyatga solmoq

- feed someone to the wolves – bo'rilarga yem qilmoq, yonini olmaslik



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2026"

- throw someone to the lions – og‘ir vaziyatga solmoq
- turn one’s back on someone – tashlab ketmoq
- pull the rug out from under someone – o‘z holiga tashlab qo‘ymoq, yordam berishni to‘xtatmoq
- feather one’s nest – o‘z maqsadida boshqalardan foydalanmoq, boshqalarning hisobidan o‘ziga uy qurmoq
- a snake in one’s bosom – qo‘yindagi ilon
- a wolf in a sheep’s skin – qo‘y terisini kiygan bo‘ri
- rat on someone – sotmoq, oshkor qilmoq
- have two faces – ikki yuzli bo‘lmoq

2.3. Frazеologik chatishmalar:

a) "Sodiqlik" konsepti:

- dyed-in-the-wool opinions – qat‘iy, o‘zgarimas fikrlar, ya’ni bu fikrlar bo‘yog‘i o‘chmaydigan matoday mustahkam
- stick to your guns – o‘z fikrida qat‘iy turmoq, o‘z instinktlariga sodiq qolmoq

b) "Sotqinlik" konsepti:

- hang someone out to dry – butun aybni boshqaning bo‘yniga ilmoq

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, frazeologik birliklar ularni boshqa til birliklaridan ajratuvchi o‘z xususiyatlariga ega. Frazеologik birliklar rus tilshunos olimi V.V. Vinogradov va boshqa bir nechta tilshunoslar tomonidan tasniflangan va har bir guruhning farqlari izohlangan. Ingliz va o‘zbek tillarida "sodiqlik" konsepti ostida yonida bo‘lish, yordam berish, do‘stlik, yoriga, Vataniga va so‘ziga sodiqlik kabi yondosh konseptlarni ifodalovchi frazeologik konseptlar, "sotqinlik" konsepti ostida esa tashlab ketish, noqulay vaziyatga solish, aldash va chaqimchilik qilish kabi yondosh konseptlarni ifodalovchi frazeologik birliklar birlashadi. Bu frazeologik birliklardan ayrimlari frazeologik sininimlikni (feed someone to the wolves va throw someone to the lions) va frazeologik antonimlikni (vafo qilmoq va xiyonat qilmoq) yuzaga keltiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Yuldosheva D., Frazеologizmlarning asosiy xususiyatlari ingliz tilidagi iboralar misolida, *Modern Science and Research*, vol. 4, no. 2, Feb. 2025, pp. 94-98.
2. Виноградов В.В., *Лексикология и лексикография. Избранные труды*, Москва, Издательство "Наука", 1977.
3. Mirzayev T. va boshqalar, O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildli, Toshkent, "O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006
4. Rahmatullayev Sh., Mahmudov N., Xolmanova Z., O‘razova I., Rixsiyeva K., O‘zbek tili frazeologik lug‘ati, Toshkent, G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022.
5. Jamolxonov H., Hozirgi o‘zbek adabiy tili, Toshkent, "Talqin", 2005.



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2026 "

6. Siefring J. (editor), Oxford Dictionary of Idioms, Oxford, Oxford University Press, 2004.
7. <https://dictionary.cambridge.org>
8. <https://www.theidioms.com/>
9. <https://dictionary.cambridge.org/>
10. <https://www.youngpostclub.com/yp>
11. <https://langeek.co/>
12. <https://engdic.org/>
13. <https://idiomsforall.com/>